



## INTERAKTIV METODLARNING DARSLARDAGI AHAMIYATI

*Ohangaron tuman*

*1-son kasb-hunar maktabi*

*maxsus fan o`qituvchisi*

*Raximova Shozoda Halimovna*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada interaktiv metodlarning darslardagi ahamiyati haqida so`z yuritilgan.

**Kalit so`zlar:** Davlat, sotuvchi, raqobat, tovar, mulk, mehnat, daromad, iqtisod, korxonalar, tadbirkor, bozor, jamiyat, tarbiya, ta`lim, loyiha, islohot, qonun, moliya kredit, ijtimoiy siyosat, narx, pul, foiz, talab, taklif, byudjet, foyda, qarz, nominal.

Pedagogik texnologiyalarning bugungi kunda eng ommaviylashgan turlaridan biri-bu interaktiv metodlardir. Interaktiv metodlar o`quvchi va o`qituvchining birgalikdagi faoliyati bo`lib, asosan o`quvchilarni fikrlarga undaydi. Kerakli xulosalarga kelishni, ular o`zini tahlil qilishni va amaliyotda qo`llashni o`rgatadi. O`qituvchining asosiy vazifasi bu erda o`quvchilarga yo`l ko`rsatish, yo`nalish berish, eng to`g`ri xulosani aytishdan iborat. Interaktiv usullar yana shunisi bilan ham ahamiyatli, o`qituvchi o`quvchining fikrini xech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina vaqti bilan to`g`ri xulosani aytib o`tib ketadi, natijada o`quvchi xatosini o`zi tushunib oladi. Bu esa ularni tushkunlikka tushish, fikrlashda tormozlanish kabi xolatlarning oldini oladi. Interaktiv metodlar o`quvchi va o`qituvchi o`rtasidagi o`zaro hurmatga asoslanadi.

O`qituvchi qanday bo`lmasin o`quvchining fikrini tinglaydi va hurmat bilan qarashini bildiradi, shu bilan birga o`quvchilarni bir-birlarini tinglashga o`rgatadi. e`tirozlar, qo`shimchalar ham “hurmatli”, “sizning fikringizga qo`shilgan holda”, “bizning ham ayrim fikrlarimiz bor edi” kabi so`zlar orqali bildiriladi. Bunday tarzda tashkil etilgan darsda o`quvchi o`zini hurmat qilinayotganligini sezadi va





bunday sharoitda xech qanday tayziqsiz erkin fikrlay boshlaydi va uni ochiq bayon eta oladi. Ushbular bilan birgalikda u boshqalarni ham hurmat qilishga o'rganadi.

O`qituvchi darsni yaxshi tashkil qilish uchun

1. O`quvchilarga qulay vaqt beradi.
2. O`zaro fikr almashtiradi.
3. Axborot berish va axborot olish uchun sharoit tug'iladi.
4. Yechimini kutayotgan masalalarni hamjihatlikda yechadilar.
5. Vaziyatdan chiqib ketish imkoni bo'ladi.
6. Olingan bilimlarini bir-birlariga namoish etadilar.



O`qituvchi va o`quvchi birga ishlab ilhomlanib ruhiy qoniqish hosil qiladi. Ular birgalikda dars jarayonida qiziqish paydo bo'lib vaqt o'tganini bilmay qoladilar. Har bir ishtirokchi o`quvchi dars mazmunini o'z mualliflaridek his etadilar. Bunda o`qituvchi ta'lim mazmunini to'la o'zlashtirishga erishadi.

“BILISH-TUSHUNISH-QO'LLASH-TAHLIL-SINTEZ-BAHOLASH”-

B.S.BLUM. 1956 yil.



O`qituvchi ma'ruza o`qiganda faqat tinglash orqali qabul qilinadigan amaliyot ko'rsatgichi qo'yidagicha bo'ladi.

Ma'ruza vaqtida o`quvchilar diqqatini 20-25 daqiqa davomida jalb etish mumkin lekin o`quvchilarning ma'lumotlarni qabul qilish ko'rsatgichi pasaya boshlaydi. Shuning uchun ularni o'zlashtirish darajasi past bo'lib, bunda o`quvchi o`quv materialini 5-10%

o'zlashtiradi xolos. Ta'lim oluvchining o'zlashtirish darajasini oshirish uchun o`quv materialining turli ko'rgazmali qurollar yordamida taqdim etish lozim. Bunda o`quv materialini eshitish va ko'rish a'zolari orqali qabul qilinadi. Interfaol dars jarayonida o`quvchilarning diqqat e'tibori vaqt davomida o'zgarib boradi. Yangi mavzuni o'rganishda 20-25 daqiqali ma'ruzadan so'ng 10-15 daqiqa davomida





ko'rgazmali material, didaktik o'yinlar asosida tushuntirish, 10-12 daqiqa davomida biror tajribani namoish qilish yoki mavzuni hayot bilan birgalikda bog'lab o'tish va oxirida o'quv materialini mustahkamlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'quv materialini kichik qisimlarga bo'lib 20-daqiqa davomida turli interfaol metodlar va didaktik o'yinlardan foydalanib o'rgatish ham yaxshi samara beradi. Bilimlar ananaviy ta'lim metodlaridan foydalanib ma'ruza orqali bayon etilsa 3 kundan so'ng ularni faqat 25% ni eslash mumkin.

O'qituvchi mashg'ulotlarni ma'ruza o'qish, namoish etish, ko'rgazmali vositalarni qo'llash va mavzu bo'yicha bahs munozaralarni o'tkazish, didaktik o'yinlar tashkil etilsa, u holda 3 kundan so'ng o'tkazilgan bilimlarning 50-70% ni eslash qobiliyatiga ega bo'lishi mumkin. Ilg'or pedagogik metod texnologiyalardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradi va o'quvchilarga ruhiy ozuqa beradi. Dars kutilgandek ko'tarinki ruhda o'tadi. Dars oxirida har bir bola rag'batlantiriladi. Dars jarayonida faol va passiv o'qiydigan o'quvchilar bilan ham alohida-alohida fikr yuritish mumkin. Biror o'quvchi o'qituvchi nazaridan chetlasha olmaydi. Dars ko'ngildagiday o'tadi. Pedagogik texnologiyalarning bugungi kunda eng ommaviylashgan turlaridan biri bu interfaol metodlar va didaktik o'yinlardir. Didaktik o'yinlar o'qituvchi va o'quvchi birgalikdagi faoliyati hisoblanib asosan o'quvchilarni fikrlashga undaydi. Kerakli xulosaga kelishishni, ular o'zini tahlil qilishni va amaliyotda qo'llashni o'rgatadi. O'qituvchining asosiy vazifasi bu erda o'quvchilarga yo'l ko'rsatish va kasbiy yo'nalish berish, eng to'g'ri xulosaga kelishishdan iborat bo'ladi.

Biz o'qitayotgan avlodga yangicha yondashuv, qiziqarli darslar, interaktiv metodlar va ma'naviy ozuqa beradigan o'qituvchilar kerak bo'ladi. Mana shunday ustozlar haqiqiy hurmatga loiq insonlar hisoblanadilar.

## INTERAKTIV MASHG'ULOT JARAYONINING ASOSIY BOSQICHLARI.

1. Salomlashish.

**Vol. 1 No. 4 (2023)**





- 2.Kirish so`zi.
- 3.Tanishuv.
- 4.Kutiladigan natijalar.
- 5.Kichik guruhlarga ajratish.
- 6.Kichik guruhlarda ishni tashkil qilish
- 7.Taqdimot.
- 8.Ma`ruza.
- 9.O`quvchilar bilan muhokama.
- 10.Xulosa.
- 11.Mashg`ulotni yakunlash.

Interaktiv metodlar o`quvchilarni ijodkorlik qobiliyatini tarbiyalash samaradorligini oshirish imkoniyatlarini tadbiq etish holatini yuzaga keltiradi.Didaktik vositalaridan foydalanish 2- usulga bo`linadi.

- 1.Universal.
- 2.Maxsus texnik vositalar.

Mashg`ulot jarayonida elektron doska,bo`r,kompyuter,telefon,proektor,teievizordan foydalanish mumkin bo`ladi.Bu uchun professor B.Ziyomuxammedov –“Ijod mahsulida didaktik materiallar o`qituvchi tomonidan har bir darsda alohida tayyorlangan,dars mazmunini to`la ifodalash va o`quvchi-talabalar dars mazmuniga yaxshi tushunib etishlari uchun xizmat qiladi”-deb qayd etilgan.

Darsni oddiy darslik yordamida ma`ruza shaklida o`tish o`quvchini darsdan,fandan bezdiradi.Shuning uchun har bir darsni bir-biriga umuman o`xshamagan holda o`tish,ko`z bilan ko`radigan,qo`l bilan ushlaydigan ko`rgazmalardan foydalanish yaxshi samara beradi va undan tashqari har bir o`qituvchi o`z ustida ishlab bilishi shart bo`lgan 5-ta savolga javob topishi kerak.

1-savol: Dars nima?-dars ma`lum vaqt birligidagi o`qituvchi va o`quvchilarning faoliyatini aks ettiruvchi ta`lim-tarbiyaning tashkiliy qismidir.

2-savol:Darsning qanday turlari bor? ma`ruza,





munoza, seminar, konsultatsiya, suhbat, bahs, didaktik o`yin, sayohat va hakazo.

3-savol: Darsning tarkibiy qismlari qanday bo`ladi?

o`tilgan darsni mustahkamlash, yangi mavzuni tushuntirish, mustaqil ish va uyga vazifa.

4-savol: Darsda ko`rgazmaliylik qanday bo`ladi?-

Dars jarayonida maqsadga erishish uchun ko`rsatiladigan ko`rgazmali qurollar: tarqatmalar, plakatlar, texnika vositalari, didaktik vositalar va boshqalar kiradi. Doimiy ko`rgazma bu xattaxta va bo`r.

5-savol: Dars tahlili nima?-

o`qituvchining ilmiy pedagogik va metodik dars jarayonlarini o`rganish, tahlil qilish va ularga metodik yordam ko`rsatishdan iborat.

Bunda:

- a) Dars jarayonida o`qituvchi ilmiy xatolikka yo`l qo`ymaganligi ko`rsatiladi.
- b) Metodik kamchiliklar o`rganiladi, o`qituvchi bilan individual munoza olib boriladi.

Dars davomida o`qituvchi "xalq maqollari", "tayanch iboralar", "davomini ayting", "topishmoq", "rivoyat", "donolar bisotidan", "Vatan" to`g`risidagi she`rlardan, "tez aytish", "krassvord", " mantiqiy savollar"-dan foydalanilsa o`qituvchilarning ruhan kayfiyatini ko`taradi va charchog`ini chiqarishga harakat qilgan bo`ladi.

## INNOVATSION TA'LIMDA INTERAKTIV MASG'ULOTLARDAN FOYDALANISH USULLARI.

Interaktiv mashg'ulot usullarga qo`yidagilar kiradi.

1. Aqliy hujum.
2. BENN-diogrammasi.
3. To`g`risini top usuli.
4. Kichik guruhlariga bo`lib ishlash.
5. Davomini ayting.





- 6.Qadam ba qadam usuli.
- 7.Zinama-zina usullari
- 8.Davra stoli usuli.
- 9.Klaster usuli.
- 10.Namoish etish-usuli.
- 11.Ma'ruza o'qitish –usuli.
- 12.Nima uchun-usuli.
- 13.Pantomima-usuli.
- 14.Xotira-usuli.
- 15.Tafakkurni anglash-usuli.
- 16.Ataka-usuli.

O`qituvchi manashu metod va didaktik o`yinlardan foydalanib dars o`tsa oquvchi uchun maroqli va qiziqarli bo`ladi.Mahoratli o`qituvchi nutqsiz harakatlar bilan bir qadam orqaga turib,ovoz temperamenti orqali,mimika orqali o`quvchini yelkasini qoqib qo`yish,boshini silash,ko`ziga tik boqib qarash orqali aktiyor bo`lishi kerak.

### **Zamonaviy o`qituvchi modeli qo`yidagilarni tashkil etadi.**

1.Tarbiyaviy faoliyat: Kirishuvchanlik,mehribon turg'unlik,bag'rikenglik,adolatlilik,ma'naviyatlilik,o`z-o`zini nazorat etishi,iymonli, e'tiqodli bo`lishi shart.


2.Kasbiy faoliyatda: Bilimdon,mahoratli,saloxiyatli,raqobatbardosh,axborot kommunikatsiya texnologiyalarni egallagan,malakali yuksak pedagog inson bo`lishi kerak.

### **O`qituvchini bilim berishi uchun**

1.O`qituvchining o`zlashtirish darajasi o`z fani bo`yicha, bir minutda 150 ta so`zni o`qisa 30-40% ni.

2.O`qituvchi 1-minutda 150-tadan yuqori so`zni o`qisa 70%-ni.

3.O`qituvchi 1-minutda 200-ta so`zni o`qib o`zlashtirsa 90% ni o`z fani bo`yicha







bilim egallangan hisoblanadi. Shuning uchun MASHQ, MASHQ, MASHQ-BILIM OLISH”-demakdir degan soʻzni tavsiya etgan boʻlamiz.

Taʼlim oluvchining diqqat eʼtibori vaqt davomida oʻzgarib boradi. Oʻquv materialini kichik qisimlarga boʻlib interfaol oʻyinlardan foydalanib oʻrgatish ham yaxshi samara beradi. Har bir darsda maʼnaviyat daqiqasiga oʻquvchilarni fikr doirasini kengayishiga ularni tarbiyaga tortishga xohlasa-xohlamasa shu narsaning ustiga bir daqiqachalik uylashga toʻxtalib oʻtadi.

Misol.

Taʼlim samaradorligini taʼminlovchi omillardan biri tahsil oluvchilarni taʼlim olishga qiziqtirishdir. Ana shulardan biri darsni noanaviy usulda tashkil qilishdir, chunki noanaviy dars oʻqituvchi va talaba orasidagi psixologik aloqani tez hamda sifatli shakllantiradi. Bunday darslarni har qanday mazmunli oʻtishda qoʻllash mumkin.

Yaponiyaning atoqli Masoru Ibuka : “Yaxshi natijaga erishish uchun bolalarni uyda tayorlangan koʻrgazmali qurollar bilan emas, balki buyuk odamlarning sanʼat asarlari: rasmlar, klassik musiqalar, sheʼrlar bilan oʻrab olish kerak”- deb aytgan.

### **Oʻqituvchiga kerakli maslahatlar.**

1. Oʻqituvchi oʻqishdan toʻxtasa, oʻqituvchini kasbi oʻzini tark etadi.
2. Oʻqituvchini oʻqitishiga emas, unung oʻzini oʻqitish kerak.
3. Oʻqituvchi ishonchli mehr berib qadrli boʻlishi kerak.
4. Oʻquvchiga tayyor bilimlarni berishdan, koʻra manbalardan foydalanib koʻrib chiqishi kerak boʻladi.
5. Har qanday sharoitda oʻqituvchining shaxsi kamsitilishi kerak emas.
6. Oʻqituvchi bilim berish bilan birgalikda hamkorlikda ijod ham qilishi kerak.
7. Har doim mustaqil mutolaa qilib turishi kerak.

### **Oʻqituvchi bilishi kerak boʻlgan toʻrta “ T “.**

1. “T” – Temperament (imo –ishora bilan ishlash).
2. “T” – Talant (layoqatli, gapga usta, toʻgʻri soʻz).
3. “T” – Tinimsiz mehnat (oʻz ustida ishlash, mehnatsevarlik).





4. "T" - Toqat (sabrlilik bo`lish kerak).

Hozirgi zamon o`qituvchisi kuchli bilimga ega bo`lishi bilan bir qatorda eng avvalo mohir notiq bo`lishi ham kerak.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyayevning "MILLIY TIKLANISHDAN-MILLIY YUKSALISH SARI"-asarida "Xalq ta'limini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini qabul qildik. Unda 48-ta maqsadli ko`rsatkichlarga erishish yuzasidan aniq mexanizmlarni belgilab oldik. 2030 yilga borib o`quvchilar bilimni baholash bo`yicha <<PIZA>> xalqaro dasturi reytingida jahondagi 30 mamlakat qatoridan joy egallashni maqsad qilib qo`yganmiz.

Bunda o`qituvchining maqomi va nufuzini oshirish, huquqlari va imtiyozlarini kengaytirish bo`yicha amalga oshirilayotgan ishlarni har tomonlama kuchaytiradigan vaqt keldi.

Maktab o`qituvchisini moddiy rag`batlantirmasak, uning sifat darajasini oshirmasak bo`lmaydi"-deb aytib o`tilgan.

#### GLOSSARIY.



Animatsiya-dinamik va ovozli jarayonlarni ifodalashga imkoniyat beradigan grafik axborotlarni tashkil etish usuli.

Ananaviy iqtisodiyot-iqtisodiyotning asosiy savollariga jamiyatdagi ananalariga asoslanib javob beradigan asosiy tizim.

Administrator-elektron axborot-ta'lim resurslarini moslashtirish va boyitish uchun keng huquqlarga ega bo`lgan mutaxassis.

Ayriboshlash-bu taklif etib, taklif etilgan narsa o`rniga kerakli narsani olish.

Biznes-(ingliz) so`z bo`lib ,tadbirkorlik faoliyati yoki kishilarning foyda olishga qaratilgan tadbirkorlik faoliyati.

Bitim - ikki tomon orasidagi savdo operatsiyasi, bo`lib u kamida ikki subyektning manfaatini o`ziga mujassamlashtiradi.

Bozor - (market) sotuvchi bilan xaridor orasida tovarni pulga ayriboshlash munosabati.





Birlamchi axborot - bozor muammolarini echish uchun maxsus tadqiqotlar o`tkazib va modellash asosida olingan ma'lumotlar yig'indisi.

Davlat mulki – aralash iqtisodiyotda mudofaa,davlat boshqaruvi,ijtimoiy tartibni muhofaza qilish,yagona energetika tizimini ta'minlash,fundamental fanni rivojlantirish,yer,yer osti boyliklari, foydali qazilmalar,suv va suv islohotlari,tabiatni muhofaza qilish kabi bir qator ob'ektlar kiradi.

Dehqon xo`jaligi - oilaviy mayda xo`jalik bo`lib,oila a`zolarining shaxsiy mehnati asosida,meros qilib qoldirilgan umurbod egalik qilish uchun oila boshlig'iga berilgan tomarqa yer uchastkasida qishloq xo`jaligi mahsuloti etishtiradi va realizatsiya qiladi.

Didaktik material- foydalanilganda o`quvchilarning bilim olishini faollashtirish,o`quv vaqtini iqtisod qilishni ta'minlaydigan o`quv mashg'uloti uchun mo`ljallangan qo`llanmalarining maxsus ko`rinishi.

Dizayn - o`quv materialini ifodalash,tavsiflash ,namoish etish usuli.

Daromad-kishini ma'lum vaqt davomida ishlab topgan yoki qo`lga kiritgan barcha moddiy va pul tushumlari.

Dvident – aksionerlik jamiyatiga tegishli daromadni bir qismi bo`lib, uni har yili aksiyadorlar orasida ularga mavjud bo`lgan aksiyalarni turi va soniga qarab taqsimlanadi.

Foyda - qo`shimcha mahsulotlarning pul shakli,savdo korxonasi tijorat faoliyatining umumlashtiruvchi ko`rsatkichi va daromadning bir qismi bo`lib, foydaning asosiy manbayi tovarning aylanishi hisoblanadi.

Distribyuter-bu sotuvchi va xaridorlar bilan shartnomalar tuzib ,keng doiradagi vazifalarni bajarib o`z nomi va hisobidan tovarni qayta sotish bilan shug'ullanuvchi shaxs.

Tovar - bu sotish uchun ishlab chiqarilgan mehnat mahsuli.

Narx - bu tovar qiymatini pul bilan ifodalanishi.

Tovar assortimenti - bu ayrim belgilari bilan birlashgan turli tovarlar yig'indisi hisoblanadi.





Ishlab chiqarish narxi - bu chakana narxning 40%.

Ulgurji narx - bu chakana narxning 60%

Bazis narx - bu tovarning sifatini aniqlashda qo'llaniladi, uni sotuvchi va oluvchi o'zaro kelishadi.

Ulgurji - bu tovarlarni cheklangan assortimentiga ega, ularni naqd pulga sotadi, tovarni xaridorga yetkazib beradi.

Shartnoma - bu tomonlar orasida o'rnatilgan majburiyatlar to'g'risidagi kelishuv.

Mulk shakllari - mulkning o'zlashtirishdagi ko'rinishi, mulkning amaliy ifodasi.

Shaxsiy mulk – bu mulk insonlarning yakka iste'mol buyumlaridan foydalanish, uni o'zlashtirish, tasarruf qilish va unga egalik qilish munosabatidir. Shaxsiy mulk jamiyat a'zolarining shaxsiy iste'molini ta'minlash uchun zarur bo'lgan uy-joy, transport vositasi, mebel, uy ro'zg'or buyumlari kiradi.

Raqobat – bu iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining o'z manfaatlarini to'laroq yuzaga chiqarish, ya'ni yaxshi daromad topish, o'z mavqeini mustahkamlash, o'z qobiliyatini namoish etish va imij ( obro' - e'tibor)ga ega bo'lish uchun boshqalar bilan kurashish.

Eksport – bu tashqi bozorda amalga oshirish niyatida xorijga tovar, xizmatlar va kapital chiqorish.

Grant – bu pulni qaytarmaslik sharti bilan to'lanishi. Loiha tahlilida, odatda, ma'lum miqdordagi pulni davlat hokimiyati tomonidan yakka shaxsga yoki kompaniyaga investitsiyani rag'batlantirish maqsadida ular tomonidan ma'lum loiha to'lanishi.

Import – tovat va xizmatlarni xorijdan olish imkonini hamda texnologiya va kapitallarni ham chetdan amalga oshirish uchun olib kelinishi hamda davlatni ichki bozorini rivojlantirish.

Ishsizlik – bu ichki kuchining band bo'lmasligi, ishga ega bo'lishni xohlovchi, ish izlovchi.

Xomashyo – bu qazib olingan va keyinchalik qayta ishlashga mo'ljallangan tabiiy yoki mehnat ta'sirida uchraydigan, so'ngra materiallarga yoki yoqilg'iga aylantiriladigan ishlab chiqorish natijasi bo'lmish mahsulot.





## BU QIZIQ.

1.Yaponiyalik Masaru Ibuka Sony korporatsiyasi asoschilaridan biri .U bolalar psixologiyasi pedagogigasi bilan jiddiy qiziqdi,bolalarning erta rivojlanishi uchun “Uchdan keyin juda kech”noyob metodologiyasini yaratdi va shu nomdagi kitob yozdi.Korrektor: Galina Rjannikova.”Tizim – vektor psixologiyasi”.

2.VValmart Stores – Amerika kompaniyasi dunyodagi eng yirik chakana savdo shug’ullanuvchi kompaniyalardan biri hisoblanadi.Uning bosh ofisi Beston Villa Arkandos shtatida 1962 yilda Sem Volton tomonidan asos solingan Sem Volton kompaniyaning 40% aksiyasi uning merosxo`rlariga tegishli.Kompaniya tarkibida 44 ta davlat 6782 ta do`konlari kiradi.

Daromadi 315,654 mlrd 2006 y.

Sof foydasi 11,231 mlrd 2006 y.

Ishchilar soni 1,9 ming 2006 y.ni tashkil etadi. Vebsayti.vvalmart.com.

3.Indira Gandhi (1917-1984)-siyosatchi va Hindiston Bosh vaziri lavozimini egallagan birinchi ayol.U Britaniya imperiyasi mustaqil bo`lganidan keyin 1947 – 1964 yillarda Hindiston hukumati uchun mas’ul bo`gan yana bir siyosatchi Javaharlar Neruning qizi hisoblanadi.

4.Kichik biznesning iqtisodiyotda tutgan o`rni YAPON MO`JIZASI deb atalgan iqtisodiy shiddat,uning qa’iy siyosati tufauli oyoqqa turib hozirda Y.I.M. umumiy foydaning yarmisini tashkil etadi.Yaponiya davlatining taraqqiyoti iqtisodiy siyosatida kichik biznes va o`rta korxonalarini tashkil etadi.

1.Qayta ishlash sanoati.

2.Ulgurji va chakana savdo xizmati.

3.Xizmat ko`rsatish korxonalarini 99 % ni kichik va o`rta biznes korxonalarini tashkil etadi.

5. Biznesni Garajda boshlagan mashhur insonlar....

AMAZON - 1994 yilda Jef Bezos tomonidan onlayn kitob do`koni darajasida ochdi.



APPIE – 1976 yilda Stiv Jobs va Stiv Voznayk ( 21 va 26 yoshlarda) “Appie Computer” kompaniyasini garajda ochdi. Birinchi ishini 50 dona Voznaykning Apple I kompyuterini 500\$ ga sotish bilan boshladi.

DISNEY – 1923 yilda VValt va uning akasi Roy amakisining bitta mashinalik garajida birinchi Disney Studiosini ochdi. ( VValt Disney kompaniyasi. )

GOOGLE – 1998 yilda Syuzan Vojiki ning garajida Stanford universitetining bitiruvchilari Lariy va Sergey Brin lar ish boshlashdi.

HARLEY DAVIDSON – 1901 yilda 21 yoshli Uilyam S. Harley velosipedlar uchun kichik motorchai yaratishni rejalashtirdi. Keyingi 2 yil ichida Harley va uning bolalikdagi do`sti Artur Davidson bilan (10 ga 15 metrlik yog`och omborxonada, garajga tenglashtirilgan) motosiklni yaratdi. Hozirda Harley – Davidson dunyoda mashhur motosikl brendi sifatida tanilgan.

Ular Amazon, Apple, Google, Disney kabiylarni tuzish uchun boshlashmagan edi. Ular shunchaki onlayn kitob do`koni, kompyuter va qidiruv algoritmlarni tuzish uchun boshlagan edi. ([https://t.me/mana\\_buyuklar](https://t.me/mana_buyuklar) ).

6. Agar puling kam bo`lsa – biznes qil. Agar puling umuman bo`lmasa – unda zudlik bilan biznes qil. (Jon Rokfeller ).

7. Biznesdagi imkoniyatlar xuddi avtobusga o`xshaydi. Ular ketma – ket kelaverishadi. (Richard Branson ).

#### **Foydalanilagan adabiyotlar:**

1. G`afforova T., Shodmonova E., Eshturdiyeva T. Ona tili. 1-sinf uchun darslik.
2. Qosimova K, Fuzailov S, Ne`matova A. Ona tili.

